| Turayev Laziz Shokirovich                                                                                                   |     |
| BALIQ YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMRADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA AHAMIYATI.....           | 664 |
| Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta o'g'li                                                                                             |     |



|                                                                                                                                                                            |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INI UNDIRISH JARAYONIDA SOLIQ TAFOVUTINI (VAT GAP) ANIQLASH VA BAHOLASH USULLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITIDA ADAPTIV YONDASHUV..... | 670 |
| Urazmatov Jonibek Musurmanovich                                                                                                                                            |     |
| HUDUDLAR SOLIQ SALOHİYATI: OMILLAR VA NATIJA.....                                                                                                                          | 675 |
| Baxtiyorov Umid Kaxramon o'g'li                                                                                                                                            |     |
| AN'ANAVIY HUNARMANDCHILIKNI RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI INNOVATSION TRANSFORMATSIYA QILISH MEXANIZMLARI.....                                                               | 680 |
| Ermetov A.I.                                                                                                                                                               |     |
| TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHDA SUPPLY CHAIN CONTROL TOWER KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI.....                                                                   | 686 |
| Yuldashev Abduxakim Abdukarimovich                                                                                                                                         |     |
| KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA AXBOROT RESURSLARINING BOSHQARUV MODEL VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....                                                    | 691 |
| Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li                                                                                                                                       |     |
| DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIGA MENTORLIK TIZIMINI TATBIQ QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....                                                                                  | 696 |
| Xurshida Maxmadaminova                                                                                                                                                     |     |
| QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING HISOB-KITOB VA UNDIRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....                                                              | 706 |
| Jumanazarov Alisher Toshtemir o'g'li                                                                                                                                       |     |
| ПРАКТИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КЛЮЧЕВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ФИНАНСАМИ УЗБЕКИСТАНА.....                                                 | 715 |
| Наимов Шохрух Шарофиддинович                                                                                                                                               |     |
| KORPORATIV DIVIDEND SIYOSATINING YANGI JIHATLARINI O'RGANISH: RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKAT MISOLIDA.....                                                                       | 723 |
| Eshev Furqat A'zamovich                                                                                                                                                    |     |
| RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA "AQLLI SHAHAR" BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH: INSONGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV.....                                                          | 730 |
| Raximova Madina Shuxrat qizi                                                                                                                                               |     |
| HUDUDIY IQTISODIY TIZIMLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY TUZILMALARI.....                                                                                                     | 737 |
| Umarov Oqil Omiljonovich                                                                                                                                                   |     |
| MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARINING FOND BOZORIDAGI INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                                           | 742 |
| Yuldashev Fozil Turapovich                                                                                                                                                 |     |
| MAKROIQTISODIY MUVOZANATNI MODELLASHTIRISHDA MATEMATIK USULLARNING TATBIQI VA PROGNOZLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....                                                         | 749 |
| Abdiraimov Abbos Xolmurodovich                                                                                                                                             |     |
| ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ГОСУДАРСТВАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ.....                                                                               | 756 |
| Мирзамухамедова Шахзода Акмалжон кизи                                                                                                                                      |     |
| O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISH.....                                                                               | 762 |
| Ismadiyarov Alisher Abduraxmon o'g'li                                                                                                                                      |     |
| СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СОСТОЯНИЙ ЧЕЛОВЕКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИМИ ОБОРОТАМИ РУССКОГО ЯЗЫКА.....                                                                                       | 766 |
| Жумаев Шавкат ХХХ                                                                                                                                                          |     |
| SUV XO'JALIGI SOHASIDA DASTURIY BUDJETLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....                                                                               | 769 |
| Dilshod Pulatov, Dildora Mirzaeva                                                                                                                                          |     |
| МЕТОДЫ СБОРА И АНАЛИЗА ДАННЫХ ДЛЯ ОЦЕНКИ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ЦИФРОВЫХ ИНВЕСТИЦИЙ.....                                                                                         | 776 |
| Каракулов Фарход Зайпудинович                                                                                                                                              |     |





|                                                                                                                                                                                     |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| НЕФОРМАЛЬНАЯ ЗАНЯТОСТЬ И ТЕНЕВАЯ СТОРОНА ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН:<br>АНАЛИЗ СТРУКТУРНЫХ ВЫЗОВОВ И ГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕР ПО ЛЕГАЛИЗАЦИИ .....                                  | 782 |
| Салахутдинова Юлдуз Голибовна                                                                                                                                                       |     |
| OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING<br>XUSUSIYATLARI .....                                                                                            | 787 |
| Xalikov Akmal Xolboyevich                                                                                                                                                           |     |
| TIJORAT BANKLARDA MOLIYAVIY XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI .....                                                                                                  | 793 |
| Roziqov Behzod Bahrom o'g'li                                                                                                                                                        |     |
| RAQOBATBARDOSH MUHITDA INNOVATSION MENEDJMENTNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI .....                                                                                                      | 799 |
| Siddikov Askar Axrorovich                                                                                                                                                           |     |
| XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON<br>VA USULLARI .....                                                                                    | 803 |
| Isakova Naima Ikromjonovna                                                                                                                                                          |     |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI<br>DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI .....                                                                | 809 |
| Abdullayeva Iroda Shuxrat qizi                                                                                                                                                      |     |
| MULTIMODAL TRANSPORT OQIMLARI SHAROITIDA LOGISTIKA XABLAR JOYLASHUVINI<br>TANLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                          | 813 |
| Umirzaqov Davlatjon Dolimjon o'g'li, Axmedova Muslima Djalolovna                                                                                                                    |     |
| SUG'URTA ZAXIRALARINI MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISH<br>TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH .....                                                                     | 818 |
| Kodirkulov Oybek Turdiboyevich                                                                                                                                                      |     |
| MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI BOSHQARISHNING XORIJIY Tajribalari .....                                                                                                                   | 826 |
| Nazarov Nazirjon Narzilloevich                                                                                                                                                      |     |
| BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING<br>NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI .....                                                                  | 830 |
| Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna                                                                                                                                                |     |
| XORIJIY DAVLATLAR Tajribasida boj-tarif siyosatini metodologik takomillashtirish<br>MODELLARI .....                                                                                 | 837 |
| Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li                                                                                                                                                     |     |
| MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI<br>(XORIJIY Tajriba asosida) .....                                                                                | 844 |
| Bekmetov Xursandbek Ilxamovich                                                                                                                                                      |     |
| SOTISH KANALLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN<br>FOYDALANISH .....                                                                                               | 850 |
| Abduxalilova Laylo Tohtasinovna                                                                                                                                                     |     |
| MINTAQ IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI<br>VA OBYEKTIV ZARURIYATI .....                                                                          | 857 |
| Achilova Firuza Kurbanovna                                                                                                                                                          |     |
| TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH<br>IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI .....                                                         | 862 |
| Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li                                                                                                                                                  |     |
| XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR<br>ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI .....                                                      | 867 |
| Ismailova Ma'mura Eldorovna                                                                                                                                                         |     |
| O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI<br>VA MANBALARI .....                                                                                             | 874 |
| Rustamova Dilsabaxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich                                                                                                                   |     |
| KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH .....                                                                                                           | 881 |
| Xashimova Dilyora Paxritdinovna                                                                                                                                                     |     |
| TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG<br>VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO<br>BOG'LIQLIGI ..... | 888 |
| Masharipov Ravshan Rajabboyevich                                                                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                                                             |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....                                                                | 893 |
| Jurayev Xusan Atamuratovich                                                                                                                                                 |     |
| TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....                                                                                     | 900 |
| Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi                                                                                                       |     |
| MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....                                                                                | 904 |
| Koliyova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi                                                                                                            |     |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA) ..... | 909 |
| Kurbanov Xayrilla                                                                                                                                                           |     |
| MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH .....                                       | 915 |
| Mirzayev Rustam Ro'ziyevich                                                                                                                                                 |     |
| РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ .....                                                                                                                                           | 921 |
| Камилова Наргиза Абдукажоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович                                                                                                               |     |
| XORIJYI DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....                                                                                  | 925 |
| Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li                                                                                                                                              |     |
| MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH .....                                                                    | 929 |
| Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li                                                                                                                                           |     |
| KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....                                                                                  | 934 |
| Toxirova Gullola Mirkamolovna                                                                                                                                               |     |
| SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI .....                                                             | 940 |
| Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li                                                                                                                                        |     |
| TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI .....                                                     | 946 |
| Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li                                                                                                              |     |
| TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI .....                                                                                  | 952 |
| O'ktamova Nozima Narzulla qizi                                                                                                                                              |     |
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....                                                                                                                               | 957 |
| Журахонов Шержахон Зафаржонович                                                                                                                                             |     |
| O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI .....                                                          | 962 |
| Raxmonov Azizjon Sadullayevich                                                                                                                                              |     |
| SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....                                                                             | 970 |
| Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich                                                                                                                                           |     |
| O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....                                                                 | 974 |
| Yuldashev Iskandar Abdurashidovich                                                                                                                                          |     |
| BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI .....                                                    | 980 |
| Rasulov Shuxrat G'ayratovich                                                                                                                                                |     |
| "YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT .....                                                                                                      | 984 |
| Ibragimova Saodat Abdumom'inovna                                                                                                                                            |     |



|                                                                                                                  |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING<br>INSTITUTIONAL MEXANIZMLARI ..... | 990 |
| Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna                                                                                   |     |



# EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

**Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna**

Namangan davlat texnika universiteti

2-kurs tayanch doktranti

Email: [nilufarmirzayeva1222@gmail.com](mailto:nilufarmirzayeva1222@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ekologik tadbirkorlikni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining institutsional mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi yashil iqtisodiyot tamoyillarining ekologik tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sirini baholash hamda ularni qo'llab-quvvatlovchi institutsional tuzilmalar samaradorligini aniqlashdan iborat. Maqolada davlat, bozor va nodavlat institutlarining ekologik tadbirkorlikni rag'batlantirishdagi o'rni, jumladan, normativ-huquqiy baza, moliyaviy mexanizmlar, soliq va kredit imtiyozlari, ekologik standartlar hamda innovatsion infratuzilmaning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, yashil investitsiyalarni jalb etish, resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va past uglerodli texnologiyalarni joriy etish jarayonlarida institutsional muhitning roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda xalqaro tajriba va rivojlangan davlatlarda shakllangan yashil iqtisodiyot institutlari faoliyati o'rganilib, ularning ekologik tadbirkorlik rivojiga qo'shayotgan hissasi baholanadi. Maqola natijalari ekologik tadbirkorlikni rivojlantirishda institutsional mexanizmlarni takomillashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ekologik tadbirkorlik, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi, institutsional mexanizmlar, barqaror iqtisodiy rivojlanish, ekologik innovatsiyalar, yashil investitsiyalar, normativ-huquqiy baza, davlat tomonidan tartibga solish, bozor institutlari, moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlari, soliq va kredit imtiyozlari, resurslardan samarali foydalanish, past uglerodli texnologiyalar, ekologik standartlar, atrof-muhitni muhofaza qilish.

**Abstract.** This article analyzes the institutional mechanisms of the green economy concept in the development of ecological entrepreneurship from a scientific, theoretical, and practical perspective. The main goal of the study is to assess the impact of green economy principles on the activities of ecological entrepreneurship entities and determine the effectiveness of institutional structures supporting them. The article highlights the role of state, market, and non-state institutions in stimulating ecological entrepreneurship, including the regulatory framework, financial mechanisms, tax and credit incentives, environmental standards, and the importance of innovative infrastructure. It also analyzes the role of the institutional environment in the processes of attracting green investments, efficient use of resources, waste recycling, and the introduction of low-carbon technologies. The study examines international experience and the activities of green economy institutions formed in developed countries and assesses their contribution to the development of ecological entrepreneurship. The results of the article serve as a theoretical basis for developing scientific and practical recommendations on improving institutional mechanisms in the development of ecological entrepreneurship, ensuring sustainable economic growth, and environmental protection.

**Key words:** ecological entrepreneurship, green economy concept, institutional mechanisms, sustainable economic development, ecological innovations, green investments, regulatory framework, state regulation, market institutions, financial incentive mechanisms, tax and credit incentives, efficient use of resources, low-carbon technologies, environmental standards, environmental protection.

**Аннотация.** В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения анализируются институциональные механизмы концепции «зеленой экономики» в развитии экологического предпринимательства. Главная цель исследования — оценить влияние принципов «зеленой экономики» на деятельность субъектов экологического предпринимательства и определить эффективность институциональных структур, поддерживающих их. В статье освещается роль государственных, рыночных и негосударственных институтов в стимулировании





экологического предпринимательства, включая нормативно-правовую базу, финансовые механизмы, налоговые и кредитные льготы, экологические стандарты и важность инновационной инфраструктуры. Также анализируется роль институциональной среды в процессах привлечения «зеленых» инвестиций, эффективного использования ресурсов, переработки отходов и внедрения низкоуглеродных технологий. В исследовании изучается международный опыт и деятельность институтов «зеленой экономики», сформированных в развитых странах, и оценивается их вклад в развитие экологического предпринимательства. Результаты статьи служат теоретической основой для разработки научно-практических рекомендаций по совершенствованию институциональных механизмов в развитии экологического предпринимательства, обеспечению устойчивого экономического роста и охране окружающей среды.

**Ключевые слова:** экологическое предпринимательство, концепция зеленой экономики, институциональные механизмы, устойчивое экономическое развитие, экологические инновации, зеленые инвестиции, нормативно-правовая база, государственное регулирование, рыночные институты, механизмы финансового стимулирования, налоговые и кредитные льготы, эффективное использование ресурсов, низкоуглеродные технологии, экологические стандарты, охрана окружающей среды.

## KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda global miqyosda ekologik muammolarning keskinlashuvi, iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanganligi hamda antropogen yuklamaning ortib borishi iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy modelini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyot konsepsiyasi barqaror rivojlanishni ta'minlash, iqtisodiy o'sish va ekologik muvozanat o'rtasidagi ziddiyatlarni yumshatishning muhim nazariy-amaliy asosi sifatida maydonga chiqmoqda. Yashil iqtisodiyot doirasida ekologik tadbirkorlik alohida ahamiyat kasb etib, u atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishishni ko'zda tutadi. Bunday jarayonlarning muvaffaqiyati esa, avvalo, institutsional mexanizmlarning qanchalik izchil va samarali shakllantirilganligiga bevosita bog'liqdir.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ekologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda normativ-huquqiy baza, moliyaviy rag'batlantirish vositalari, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, 2020-yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish ekologik tadbirkorlikni institutsional jihatdan mustahkamlash zaruratini yanada kuchaytirdi. Ushbu jarayonda davlat siyosati, bozor institutlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik ekologik innovatsiyalarni keng joriy etish uchun qulay muhit yaratadi.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2022 yildagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-son<sup>1</sup> qarorida mamlakatda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ekologik toza ishlab chiqarish va chiqindilarni qayta ishlash sohalarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Mazkur strategiya ekologik tadbirkorlik subyektlari uchun institutsional asoslarni mustahkamlash, ularni moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda [1].

Shuningdek, so'nggi yillarda qabul qilingan Prezident Farmon va qarorlari ekologik yo'naltirilgan biznesni rivojlantirishda muhim huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish, "yashil" investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan hujjatlar ekologik tadbirkorlikning institutsional muhitini yaxshilashga yo'naltirilgan. Bu borada Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi olib borilayotgan islohotlar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son<sup>2</sup> Farmonida ham ekologik xavfsizlikni ta'minlash, yashil texnologiyalarni keng joriy etish va ekologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash alohida ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu hujjatda resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash tizimini rivojlantirish, shuningdek, ekologik standartlarga mos ishlab chiqarishni kengaytirish orqali tadbirkorlik muhitini yaxshilash ko'zda tutilgan. Bu esa ekologik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rag'batlantiruvchi institutsional mexanizmlarni yanada takomillashtirishni talab etadi [2].

1 <https://lex.uz/uz/docs/-6303230>

2 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi besh yillik tadqiqotlar ekologik tadbirkorlikni rivojlantirishda "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi faqat texnologik yangilanish emas, balki institutlar (qonunchilik, moliya, boshqaruv va standartlar) uyg'unligiga tayanuvchi tizimli o'zgarish ekanini ko'rsatadi. Xususan, xorijiy olimlar Prasetyo P. E., Kistanti N. R., Grinevich V., Huber F., Karataş-Özkan M., Yavuz Ç., Dlamini S., Kwilinski A., Lyulyov O., Pimonenko T. ning hamda xalqaro tadqiqot tashkilotlari OECDning mamlakatlar kesimidagi tahlillari yashil tadbirkorlikni rag'batlantirishda davlat siyosati, innovatsion infratuzilma, bozor signallari va qo'llab-quvvatlovchi institutlar o'rtasidagi muvofiqlashtirish hal qiluvchi omil ekanini asoslaydi [3]. Shu yo'nalishda xalqaro adabiyotlarda "eko-innovatsiya", "green entrepreneurial orientation" va barqaror biznes strategiyalari o'rtasidagi bog'liqlik empirik jihatdan isbotlanib, institutsional qo'llab-quvvatlash (ta'lim, moliya, normativ talablar) yashil amaliyotlarni jadallashtirishini ta'kidlaydi [4]. Shuningdek, ekotadbirkorlikda qiymat yaratishning institutlarga bog'liqligi (hamkorlik tarmoqlari, reputatsion kapital, sertifikatlash) alohida ilmiy yo'nalish sifatida kengaymoqda [5].

O'zbek olimlari Isroilov D., Turg'unov J. A., Shodmonov R., Umarov M., Otamurodov R., Xaitbayev J., Atadjanov K. ning tadqiqotlarida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida institutsional mexanizmlarning milliy xususiyatlari — boshqaruv tizimi, "yashil" moliyalashtirish, normativ-huquqiy asoslar va investitsion muhit — markazga qo'yiladi. Masalan, so'nggi yillarda O'zbekistonda yashil iqtisodiyot salohiyatini ochish uchun siyosiy-huquqiy omillar va institutsional shartlarning roli yoritilib, "yashil" o'sish drayverlari sifatida moliya institutlari, rag'batlar va tarmoqlararo koordinatsiya ko'rsatiladi [6]. "Yashil moliyalashtirish" bo'yicha ishlar loyihalarni tanlash mezonlari, imtiyozlar va institutsional hamkorlik ekologik tadbirkorlikni kengaytirishini qayd etadi [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ekologik tadbirkorlikni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining institutsional mexanizmlarini o'rganishda kompleks ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Xususan, ilmiy-nazariy tahlil va sintez usullari orqali yashil iqtisodiyot hamda ekologik tadbirkorlik tushunchalarining mazmuni ochib berildi. Statistik tahlil yordamida 2020–2024-yillarga oid yashil investitsiyalar, ekologik tadbirkorlik subyektlari ulushi va institutsional qo'llab-quvvatlash ko'rsatkichlari o'rganildi. Taqqoslash va dinamik tahlil usullari orqali institutsional mexanizmlarning vaqt bo'yicha o'zgarishlari baholandi. Shuningdek, mantiqiy modellash va grafik tahlil ekologik tadbirkorlik rivojiga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi besh yil davomida yashil iqtisodiyot konsepsiyasi ekologik tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim nazariy va amaliy poydevoriga aylandi. Nazariy jihatdan yashil iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Mazkur konsepsiya ekologik tadbirkorlikni faqatgina biznes faoliyati sifatida emas, balki institutsional muhit bilan chambarchas bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida talqin etishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, institutsional mexanizmlar — davlat siyosati, normativ-huquqiy baza, moliyaviy rag'batlar va bozor institutlari — ekologik tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillar sifatida maydonga chiqmoqda [9].

Nazariy modelga ko'ra, ekologik tadbirkorlikning rivojlanish sur'ati institutsional qo'llab-quvvatlash darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. 2020–2024-yillarda global miqyosda yashil iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi yiliga o'rtacha 8–10 foizga oshgani, ekologik innovatsiyalar bilan shug'ullanuvchi kichik va o'rta biznes subyektlarining ulushi esa 1,3–1,5 baravarga ko'paygani kuzatildi. Bu holat nazariy jihatdan institutsional muhitning mustahkamlanishi ekologik tadbirkorlik faolligini rag'batlantirayotganini ko'rsatadi [10].

Quyidagi 1-jadvalda 2020–2024-yillar kesimida ekologik tadbirkorlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy institutsional ko'rsatkichlarning umumlashtirilgan dinamikasi keltiriladi.

1-jadval. 2020–2024-yillarda ekologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi institutsional ko'rsatkichlar dinamikasi<sup>3</sup>

| Ko'rsatkichlar                                 | 2020 | 2021  | 2022  | 2023  | 2024  |
|------------------------------------------------|------|-------|-------|-------|-------|
| Yashil investitsiyalar hajmi (mlrd AQSh doll.) | 900  | 1 050 | 1 200 | 1 350 | 1 500 |
| Ekologik tadbirkorlik subyektlari ulushi (%)   | 7,8  | 8,5   | 9,6   | 10,8  | 11,9  |
| Yashil loyihalar uchun davlat imtiyozlari soni | 120  | 145   | 170   | 195   | 220   |
| Past uglerodli texnologiyalar ulushi (%)       | 14,2 | 16,0  | 18,5  | 21,0  | 23,7  |



Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, so'nggi besh yilda yashil investitsiyalar hajmining izchil o'sishi ekologik tadbirkorlik subyektlari soni va ularning iqtisodiyotdagi ulushini oshirishga xizmat qilgan. Ayniqsa, davlat tomonidan berilayotgan soliq va kredit imtiyozlari, shuningdek, past uglerodli texnologiyalarni qo'llash darajasining ortishi institutsional mexanizmlarning samaradorligini nazariy jihatdan tasdiqlaydi. Ushbu tendensiyalar ekologik tadbirkorlikni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining institutsional asoslari mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.

So'nggi besh yillik amaliy natijalar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot konsepsiyasining institutsional mexanizmlari ekologik tadbirkorlikni rivojlantirishda faqat nazariy model sifatida emas, balki real iqtisodiy natijalar berayotgan tizimga aylangan. 2020–2024-yillarda davlat tomonidan ekologik yo'naltirilgan siyosatning kuchaytirilishi, moliyaviy rag'batlar va bozor institutlarining moslashuvi ekologik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyotdagi rolini sezilarli darajada oshirdi. Xususan, yashil investitsiyalar oqimi, ekologik innovatsiyalar soni va "yashil" ish o'rinlari ulushi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi [11].

Shuningdek, amaliy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, institutsional mexanizmlarning samaradorligi uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'lmoqda: birinchidan, normativ-huquqiy muhitning takomillashuvi ekologik tadbirkorlik uchun aniq va barqaror qoidalarni shakllantirdi; ikkinchidan, moliyaviy mexanizmlar (yashil kreditlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari) biznes subyektlarining ekologik loyihalarga kirib kelish xarajatlarini kamaytirdi; uchinchidan, bozor institutlari va innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi ekologik mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabni kengaytirdi. 2024-yil yakunlariga ko'ra, ekologik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi hisssasi 2020-yilga nisbatan o'rtacha 1,4 baravarga oshgani qayd etildi.

Mazkur jarayonlarning tizimli o'zaro bog'liqligini yaxshiroq ochib berish maqsadida quyida chizma (infografik sxema) tasviri keltirildi. Chizma tasvirida yashil iqtisodiyot institutsional mexanizmlarining ekologik tadbirkorlik natijalariga ta'siri mantiqiy zanjir ko'rinishida ifodalangan (1-rasm).



1-rasm. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi<sup>4</sup>

Yuqoridagi chizmada yashil iqtisodiyot konsepsiyasining institutsional mexanizmlari (normativ-huquqiy, moliyaviy va innovatsion) ekologik tadbirkorlik faoliyatini qanday rag'batlantirishini ko'rsatadi. Ushbu mexanizmlar o'zaro uyg'unlashgan holda resurslardan samarali foydalanish, past uglerodli texnologiyalarni joriy etish va yashil ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi [12]. Natijada, barqaror iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda atrof-muhitni muhofaza qilishga erishiladi.



Umuman olganda, 2020–2024-yillardagi natijalar yashil iqtisodiyot institutsional mexanizmlarining ekologik tadbirkorlik rivojiga ijobiy va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, kelgusida ushbu mexanizmlarni yanada chuqurlashtirish, xususan, yashil moliya bozorlarini kengaytirish va ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash orqali ekologik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ulushini yanada oshirish mumkin [13].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada ekologik tadbirkorlikni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining institutsional mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020–2024-yillar davomida normativ-huquqiy bazaning takomillashuvi, moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarining kengayishi hamda innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi ekologik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini faollashtirishga xizmat qilgan. Yashil investitsiyalar hajmining izchil o'sishi, past uglerodli texnologiyalarning keng joriy etilishi va resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining yaxshilanishi institutsional mexanizmlarning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ekologik tadbirkorlik barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: ekologik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan institutsional mexanizmlarni yanada uyg'unlashtirish, yashil moliya instrumentlarini kengaytirish, ekologik innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi soliq va kredit imtiyozlarini kuchaytirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida yashil loyihalarni amalga oshirishni jadallashtirish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Isroilov, D. (2026). Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi asosida kichik biznes faoliyatini oshirish yo'llari. Muhandislik va iqtisodiyot, 4(1).
2. <https://www.oecd.org/en.html>
3. <https://www.sciencedirect.com/>
4. <https://www.emerald.com/>
5. <https://webofjournals.com/>
6. <https://www.researchgate.net/>
7. <https://sdgnuu.uz/>
8. Turg'unov, J. A. (2023). Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari. Qo'qon universiteti xabarnomasi, 9, 85-87.
9. Shodmonov, R. (2024). O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy mexanizmlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 1(5).
10. Umarov, M., Otamurodov, R., Xaitbayev, J., & Atadjanov, K. (2025). Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 3(4).
11. Prasetyo, P. E., & Kistanti, N. R. (2023). The potential of informal institutions in promoting green entrepreneurship (GE) and sustainable socio-economic development. Economics – Innovative and Economics Research Journal, 11(Special issue 1), 1-20.
12. Grinevich, V., Huber, F., Karataş-Özkan, M., & Yavuz, Ç. (2019). Green entrepreneurship in the sharing economy: Utilising multiplicity of institutional logics. Small Business Economics, 52(4), 859-876.
13. Dlamini, S. (2023). The role of the institutional environment as a barrier or an enabler to entrepreneurial and innovation activity: The case of the South African green economy industry. Doctoral dissertation, University of Westminster.
14. Kwilinski, A., Lyulyov, O., & Pimonenko, T. (2024). Green economic development and entrepreneurship transformation. Entrepreneurial Business and Economics Review, 12(4), 157-175.





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 1

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>